

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

QAYUMOVA OYGULXON ISMOILJONOVNA

**JANUBIY FARG‘ONANING ARVOH KAPALAKLARI (LEPIDOPTERA:
SPHINGIDAE) FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Qayumova Oygulxon Ismoiljonovna

Janubiy Farg‘onaning arvoq kapalaklari (Lepidoptera: Sphingidae) faunasi va ekologiyasi..... 3

Каюмова Ойгулхон Исмоилжоновна

Фауна и экология бражников (Lepidoptera: Sphingidae) Южной Ферганы..... 21

Qayumova Oygulkhon Ismoiljonovna

Fauna and Ecology of Hawkmoths (Lepidoptera: Sphingidae) of Southern Fergana 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

QAYUMOVA OYGULXON ISMOILJONOVNA

**JANUBIY FARG‘ONANING ARVOH KAPALAKLARI (LEPIDOPTERA:
SPHINGIDAE) FAUNASI VA EKOLOGIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/B875 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shermatov Malikjon Raxmatjonovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Ikrom Iskandarovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yuldasheva Shoxista Qobiljonovna
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2021.B.05.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 10-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. FarDU.Tel.: (+99873) 244-44-02, faks (+99873) 244-44-93, E-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№667-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy, Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 29-dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 29-dekabrda 36-raqamli reyestr bayonnomasi).



I.I. Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

B.M. Sheraliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

A.K. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida bioxilma-xillikni saqlash, ekotizimlar barqarorligini ta'minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, antropogen omillar ta'sirida tabiiy ekotizimlarning kuchli o'zlashtirilishi atrof-muhitning o'zgarishiga va biologik xilma-xillikning qisqarishiga, shu jumladan, Lepidoptera turkumining ekologik jihatdan muhim oilalaridan biri bo'lgan arvoh kapalaklar (Sphingidae) faunasi xilma-xilligining kamayishiga sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib, antropogen omillar va iqlim o'zgarishlari ta'sirida tabiiy ekotizmlari o'zgarishga uchrayotgan hududlarda arvoh kapalaklar populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash, taksonomik tarkibini aniqlash, kamyob va yo'qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan arvoh kapalaklarning faunasi, tarqalishi, ekologiyasi va ahamiyatini tadqiq etish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar asosidagi ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, molekulyar-genetik tahlillar asosida turlarning zamonaviy taksonomik o'rnini aniqlash¹, populyatsiyalarga ta'sir etuvchi global va mahalliy omillarning ta'sirini baholash², muhofazaga muhtoj va iqtisodiy ahamiyatga ega turlar uchun ilmiy asoslangan boshqaruv va muhofaza choralarini ishlab chiqish, iqlim o'zgarishi modellari asosida ularning potentsial areallarini GAT-modellashtirish, ozuqa zanjiridagi va o'simliklarni changlatishdagi, shuningdek, ekologik inqirozga uchragan ekotizimlar holatini baholashdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilmoqda³.

Respublikamizda hasharotlar bioxilma-xilligini aniqlash, ekologik va iqtisodiy ahamiyatini o'rganish, kamyob va yo'qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish, shuningdek, zararkunanda turlarga qarshi samarali kurash chora tadbirlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida⁴ «Iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish hamda «Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar 2030-yilgacha erishiladigan asosiy maqsadlar etib belgilangan. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda, jumladan, Farg'ona vodiysi arvoh kapalaklari faunasini tadqiq etish, ularning tarqalish areallari va ekologik xususiyatlarini ochib berish, muhofazaga muhtoj turlarni saqlash, shuningdek, zararkunanda turlarga qarshi kurash usullarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentabrdagi "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-408-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha

¹ <https://doi.org/10.1073/pnas.0510466103>

² <http://dx.doi.org/10.1111/icad.12447>

³ <http://dx.doi.org/10.1111/1365-2435.12753>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.

bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son Farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrdagi "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4861-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 484-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Arvoh kapalaklar faunasi, tur tarkibi, bioekologiyasi va muhim turlarining tarqalishiga oid tadqiqotlar xorijiy mamlakatlar olimlari K.A.Efetov (1990-2012), A.Kelber (1997-1999), R.Kern (1998), I.A.Solodovnikov (1999), I.J.Kitching (2000), A.R.Pittaway (1993-2023), E.Akkuzu (2007), A.Y.Kawahara (2009), S.V.Titov (2013), F.V.Sautkin (2017), V.M.Spitsny (2021), M.S.Vitaly (2022) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlari miqyosida Sphingidae oilasiga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlilari Y.L.Shetkin (1960), Y.Y.Shetkin (1978-2023), V.V.Dubatalov (2003), D.F.Shovkun (2010), A.B.Bekenova (2005), A.Y.Matov (2008), P.Y.Gorbunov (2011), R.V.Yakovlev (2011), T.M.Bragina (2015), O.L.Titova (2017), S.Y.Sinyov (2017), S.K.Korb (1993-2023) va boshqalar tomonidan olib borilgan bo'lib, mualliflar turli hududlar arvoh kapalaklarining faunistik tahlili va ekologiyasi, shuningdek, bazi turlarning zarar keltirish xususiyatlari bilan bog'liq masalaga e'tibor qaratishgan.

O'zbekistonda arvoh kapalaklarni maxsus o'rganishga oid tadqiqotlar Sh.N.Omonov (2022-2024) tomonidan Samarqand viloyatida Zarafshonning o'rta oqimi hududlarida olib borilgan. Shuningdek, Y.L.Shetkin (1960), V.V.Yaxontov (1962), D.A.Azimov (1993), X.U.Bekchanov (2023), M.R.Shermatov (2024)larning O'zbekiston entomofaunasining tangachaqaqnotli hasharotlarini o'rganishga oid tadqiqotlarida ham arvoh kapalaklarning ayrim turlari haqida ma'lumotlar uchraydi.

Biroq, yuqorida ta'kidlangan ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston hududida tarqalgan arvoh kapalaklar faunasini batafsil yoritib bera olmaydi. Farg'ona vodiysi sharoitida esa ushbu oilaga mansub hasharotlar maxsus o'rganilmagan bo'lib, alohida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Farg'ona vodiysi o'simlik va hayvonot dunyosini tadqiq qilish va bioxilma-xillikni saqlash muammolari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Janubiy Farg‘ona arvoҳ kapalaklarining tur tarkibini aniqlash, morfologik va molekulyar-genetik jihatdan asoslash, tarqalish areallarini belgilash hamda ekologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Janubiy Farg‘ona arvoҳ kapalaklarining tur tarkibini aniqlash va taksonomik tahlil qilish;

Janubiy Farg‘ona arvoҳ kapalaklarining qanot tomirlanishi va genitaliya tuzilishiga asoslangan identifikatsiya belgilarini yoritib berish;

Janubiy Farg‘ona arvoҳ kapalaklarini molekulyar-genetik tahlil qilish;

arvoҳ kapalaklarning tarqalish areallarini belgilash, xaritasini ishlab chiqish;

arvoҳ kapalaklarining mavsumiy rivojlanish xususiyatlari va ozuqa o‘simliklari bilan trofik aloqalarini ochib berish;

tabiiy ekotizimlar antropogen transformatsiyasini arvoҳ kapalaklar populyatsiyalariga ta’sirini tahlil etish va areali qisqarib borayotgan turlarni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Janubiy Farg‘ona arvoҳ kapalaklari (Sphingidae) olingan.

Tadqiqotning predmeti arvoҳ kapalaklarning faunasi, tarqalishi, morfologik va molekulyar identifikatsiyasi, ekologik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda faunistik, taksonomik, morfologik, molekulyar, ekologik va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Janubiy Farg‘ona hududi Sphingidae oilasining tur tarkibi 3 ta kenja oila, 3 ta triba, 7 ta avlodga mansub 9 ta tur va 2 ta kenja turdan iborat ekanligi aniqlangan;

arvoҳ kapalaklarning 4 ta avlodga mansub 7 ta turi tadqiqot hududida ilk bor qayd etilgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan *Proserpinus proserpina* turini Farg‘ona vodiysidan dastlabki qayd etilishi orqali uning tarqalish areali chegarasi O‘zbekistonning sharqiy mintaqasi bo‘ylab kengayganligi asoslangan;

Janubiy Farg‘ona arvoҳ kapalaklari molekulyar-genetik tahlil qilinib, turlarning taksonomik o‘rni va filogenetik aloqalari ochib berilgan;

tadqiqot hududi arvoҳ kapalaklar turlarining qanot tomirlanishi va genitaliya tuzilishi kabi barqaror taksonomik belgilariga asoslangan identifikatsiya me’zonlari ishlab chiqilgan;

arvoҳ kapalaklar imagolarining mavsumiy faolligiga ko‘ra, 1 ta tur bahorgi-yozgi, 8 ta tur bahorgi-yozgi-kuzgi, 2 ta tur yozgi-kuzgi ekologik guruhlarga mansubligi, shuningdek, qishlash xususiyatiga ko‘ra *M. stellatarum* imago holida, qolgan barcha turlar g‘umbak bosqichida qishlab chiqishi aniqlangan;

arvoҳ kapalaklar imagolarining tadqiqot hududida jami 15 ta oila 34 tur o‘simlik bilan, qurtlarini esa 11 ta oilaga mansub 18 tur o‘simlik bilan trofik aloqalari qayd etilgan hamda imagolik bosqichidagi trofik darajalariga ko‘ra polifag (66,7%) va oligofag (33,3%), o‘simliklarning hayotiy shakllari bilan aloqasiga ko‘ra dendro-tamno-xortobiont (55,6%) va dendro-xortobiont (44,4%), shuningdek, lichinka bosqichidagi trofik darajalariga ko‘ra, tor polifag (18,2%), oligofag (63,6%), monofag (18,2), o‘simliklarning hayotiy shakllari bilan biotsenotik

aloqalariga ko'ra esa, dendrofag (18,2%), tamnofag (27,3%), xortofag (54,5%) ekologik guruhlari asoslangan.

tabiiy ekotizimlar antropogen transformatsiyasini arvoh kapalaklar populyatsiyalariga ta'siri baholanib, areali qisqarib borayotgan turlarni muhofaza qilishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot hududi arvoh kapalaklari turlarining qanot tomirlanishi va genitaliya tuzilishi kabi barqaror taksonomik belgilariga asoslangan identifikatsiya me'zonlari ishlab chiqilgan;

arvoh kapalaklarni Janubiy Farg'ona hududida aniqlangan koordinatalari asosida tarqalish areallari xaritalari ishlab chiqilgan;

tabiiy ekotizimlar antropogen transformatsiyasini arvoh kapalaklar populyatsiyalariga ta'siri baholanib, areali qisqarib borayotgan turlarni muhofaza qilishning ilmiy asoslari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda entomologiyaning klassik va zamonaviy usullaridan foydalanilganligi, ilmiy farazlar, keng ko'lamli tahlil natijalarining nazariy ma'lumotlarga mosligi, ularning turli xalqaro va milliy nashrlarda e'lon qilinganligi, populyatsiya ko'rsatkichlari, rivojlanish xususiyatlari va tarqalish suratlarini matematik-statistik uslublar asosida tahlil etilganligi, shuningdek, amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Janubiy Farg'ona hududida tarqalgan Sphingidae faunasining hozirgi zamonaviy tur tarkibining aniqlanganligi, molekulyar-genetik tahlil qilinganligi, turlarning qanot tomirlanishi va genitaliya tuzilishiga asoslangan identifikatsiyasini amalga oshirilganligi, tarqalish areallari, rivojlanish sikli va ozuqa o'simliklari bilan trofik aloqalari tahlil etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Sphingidae turlarini qanot tomirlanishi va genitaliya tuzilishi bo'yicha identifikatsiya me'zonlarini ishlab chiqilganligi, tabiiy ekotizimlar antropogen transformatsiyasini arvoh kapalaklar populyatsiyalariga ta'siri baholanib, areali qisqarib borayotgan turlarni muhofaza qilishning ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi, tadqiqot hududidan yig'ilgan Sphingidae turlarining 42 nusxa namunalari "Zoologiya kolleksiyasi" noyob obyektiga kiritilganligi, *Agrius convolvuli*, *Hyles hippophaes*, *H. livornica*, *Macroglossum stellatarum*, *Smerinthus kindermannii* hamda *Theretra alecto* turlarining COI nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlarini Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBank bazasiga joylashtirilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Janubiy Farg'onaning arvoh kapalaklari (Sphingidae) faunasi va ekologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Janubiy Farg'onaning arvoh kapalaklari (Sphingidae) faunasi va ekologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida: Sphingidae oilasiga tegishli bo'lgan 7 ta avlod 8 ta turga mansub hasharotlarning 42 nusxa namunalari respublikada yetakchi bo'lgan Zoologiya instituti "Zoologiya kolleksiyasi" noyob obyektiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 27-dekabrda)

№4/1255-2920-son ma'lumotnomasi). Natijada, namunalar hasharotlar kolleksiyasi fondini boyitgan va turlar xilma-xilligini aniqlash hamda elektron ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini bergan;

Agrius convolvuli, *Hyles hippophaes*, *H.livornica*, *Macroglossum stellatarum*, *Smerinthus kindermannii*, *Theretra alecto* turining COI nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlar Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBank bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazi, ncbi.nlm.nih.gov). Natijada, PQ387105, PQ387106, PQ387107, PQ387108, PQ387109, PQ387110 inventar raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda ushbu turning filogeniyasini molekulyar-genetik identifikatsiyalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 11 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 5 ta respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Arvoh kapalaklarni o'rganishga oid tadqiqotlar tarixi va zamonaviy holati”** deb nomlangan birinchi bobi uch qismdan iborat. “Xorijiy mamlakatlarda arvoh kapalaklarning o'rganilishiga oid tadqiqotlar tarixi va zamonaviy holati” nomli birinchi paragrafda xorijiy mamlakatlarda Sphingidae oilasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar batafsil tahlil etilib, bu boradagi ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlari va tarixiy bosqichlari umumlashtirilgan holatda bayon qilingan.


Bobning **“Markaziy Osiyoda arvoh kapalaklarning o'rganilishiga oid tadqiqotlar tahlili”** nomli ikkinchi paragrafida Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston hududlarida olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Ushbu paragrafda keltirilgan tahlillar asosida, Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan ishlar 4 ta davriy ketma-ketlikda o'z ifodasini topganligi xulosa qilingan. Xususan, faunistik asoslar va birlamchi kuzatuvlarni jamlagan birinchi bosqichda arvoh kapalaklarning faunistik ro'yxatlari tuzilib,

Sphingidae turlarining tarqalishi, biologiyasi va morfologiyasi tasvirlangan. Markaziy Osiyo tadqiqotlarining ikkinchi bosqichida asosan, arvoq kapalaklarning tashqi morfologiyasi va ekologik xususiyatlari bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan. Uchunchi bosqich esa, Markaziy Osiyo hududlaridan to'plangan turlarning identifikatsiyasi va ekologik monitoringiga oid tadqiqotlar bilan ajralib turadi. Tizimli kataloglashtirish, tarqalish xaritalari va muhofaza strategiyalarini o'zida jamlagan to'rtinchi bosqich so'nggi yillarda amalga oshirilgan arvoq kapalaklarning biologiyasi, ekologiyasi va tarqalish dinamikasiga oid tadqiqotlardan iborat.

“O'zbekiston, jumladan, Farg'ona vodiysida arvoq kapalaklarning o'rganilish tarixi va zamonaviy holati”ga bag'ishlangan uchinchi paragrafda O'zbekiston, xususan Farg'ona vodiysining arvoq kapalaklar faunasi kompleks tadqiq etilmaganligi, hozirga qadar o'tkazilgan tadqiqotlar esa, ayrim hududlar misolida yoki bir nechta turlar bilan cheklanganligi, bu borada, ayniqsa, Farg'ona vodiysining Sphingidae faunasi va ekologiyasini o'rganishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning **“Janubiy Farg'ona arvoq kapalaklari faunasi va bioekologiyasini o'rganish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobi beshta paragrafdan iborat bo'lib, tadqiqot olib borilgan hududning tabiiy geografik tavsifi va landshaft xususiyatlari, namunalarni yig'ish va qayta ishlash usullari, turlarning morfologik va genitaliyaga asoslangan identifikatsiyasi, turlarning rivojlanish sikli, fenologik xususiyatlari va trofik munosabatlarini o'rganish hamda matematik statistik uslublar yoritib berilgan. Mazkur dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan Farg'ona vodiysining janubiy hududlari tabiiy hamda antropogen ekotizimlaridan 2020-2024-yillar mobaynida yig'ilgan materiallar, olib borilgan tadqiqot va kuzatishlar natijalariga asoslanadi. Tadqiqotlar Farg'ona vodiysining janubiy sarhadlari bo'ylab joylashgan So'x tumati, Farg'ona tumani, Farg'ona shahri, Quva tumanining janubiy hududlari, Quvasoy shahri, Oltiariq tumani, Rishton, O'zbekiston tumanlari, shuningdek tadqiqot hududiga yaqin bo'lgan Qo'shtepa, Toshloq, Bog'dod, Uchko'prik, Furqat tumanlarining antropogen hamda tabiiy landshaftlarida olib borilgan (1-rasm).

Namunalarni yig'ish, qayta ishlash, kolleksiya tayyorlash va ularni saqlash jarayonida V.B.Golub (2012), M.I.Shapovalov (2021)lar tomonidan ishlab chiqilgan uslublar va tavsiyalardan foydalanilgan. Turlarni morfologik uslubda aniqlashda tangachaqanotli hasharotlarning aniqlagichlari, Sphingidae oilasiga oid xalqaro elektron kataloglar va kapalaklarning atlaslaridan foydalanilgan (Y.L.Shetkin, 2023; I.J.Kitching, 2000; A.R.Pittaway, 2023). Bunda aniqlanayotgan turning morfologik o'lchamlari, qanotlarining rangi va ulardagi naqshlar hamda tana qismlaridagi turga xos boshqa kichik belgilari, shuningdek, qanotlarning tomirlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Qanot preparatlari Zimmerman (1978), Aljaf (2019) tomonidan ishlab chiqilgan uslub asosida tayyorlangan. Jinsiy organlarining preparatini tayyorlash va o'rganishda Fibiger (1990) uslubidan foydalanilgan.



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan va namuna yig‘ilgan hududlar

Turlarning rivojlanish sikli, fenologik xususiyatlari va trofik munosabatlarini tahlil qilishda O.I.Merjeevskaya, I.D.Yurkevich, I.G.Serebryakov, A.Yu.Barma (2015), I.I.Zokirov (2019), H.O‘.Bekchanov (2023), Sh.N.Omonov (2024), M.R.Shermatov (2024) larning tadqiqot uslublaridan foydalanilgan. Janubiy Farg‘ona arvoq kapalaklarini molekulyar-genetik tahlil qilishda DNK barkoding metodidan foydalanilgan (Hebert et al., 2003). Matematik statistik tahlillar G.F.Lakin (1990), A.Gorodnicheva (2019) bo‘yicha amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning “**Janubiy Farg‘ona arvoq kapalaklarining faunistik tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobi to‘rtta paragrafdan iborat bo‘lib, dastlabki paragrafida “Janubiy Farg‘ona arvoq kapalaklarining tur tarkibi va taksonomik tahlili” yoritib berilgan. Olib borilgan tadqiqotlar va faunistik tahlillar asosida, Janubiy Farg‘ona hududida Lepidoptera turkumi Sphingidae oilasining 3 ta kenja oila (Smerinthinae, Sphinginae, Macroglossinae), 3 ta triba (Smerinthini, Acherontiini, Macroglossini), 7 ta avlodga (*Agrius*, *Hyles*, *Laothoe*, *Macroglossum*, *Proserpinus*, *Smerinthus*, *Theretra*) mansub 9 ta tur va 2 ta kenja turi tarqalganligi aniqlangan.

INSECTA Linnaeus, 1758 **sinf**

LEPIDOPTERA Linnaeus, 1758 **turkumi**

BOMBYCOIDEA Gravenhorst, 1843 **katta oilasi**

SPHINGIDAE Latreille, 1802 **oilasi**

Smerinthinae Grote & Robinson, 1865 **kenja oilasi**

Smerinthini Grote & Robinson, 1865 **tribasi**


Laothoe Fabricius, 1807 **avlodi**

1. *Laothoe populi populetorum* (Staudinger, 1887) Δ
Smerinthus Latreille, [1802] **avlodi**
2. *Smerinthus kindermannii* Lederer, 1853 *
Sphinginae Latreille, [1802] **kenja oilasi**
Acherontiini Boisduval, [1875] **tribasi**
Agrius Hübner, [1819] **avlodi**
3. *Agrius convolvuli* (Linnaeus, 1758) Δ
Macroglossinae Harris, 1839 **kenja oilasi**
Macroglossini Harris, 1839 **tribasi**
Proserpinus Hübner, [1819] **avlodi**
4. *Proserpinus proserpina* (Pallas, 1772) * +
Macroglossum Scopoli, 1777 **avlodi**
5. *Macroglossum stellatarum* (Linnaeus, 1758) *
Hyles Hübner, [1819] **avlodi**
6. *Hyles euphorbiae* (Linnaeus, 1758) *
7. *Hyles zygophylli* (Ochsenheimer, 1808) *
8. *Hyles hippophaes* (Esper, [1789]) *
9. *Hyles hippophaes bienerti* Staudinger, 1874 Δ
10. *Hyles livornica* (Esper, 1780) *
Theretra Hübner, [1819] **avlodi**
11. *Theretra alecto* (Linnaeus, 1758) Δ
Izoh: * - tadqiqot hududida ilk bor uchratilgan turlar; Δ - tadqiqot hududida muallifga qadar qayd etilgan turlar; + - O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan tur.

Janubiy Farg‘ona hududida Macroglossinae kenja oilasining 4 ta avlodiga mansub 7 ta tur va 1 ta kenja tur, Smerinthinae kenja oilasining 2 ta avlodiga mansub 1 ta tur 1 va kenja tur, Sphinginae kenja oilasining esa, 1 ta avlodiga mansub 1 ta turi tarqalganligi, turlarning avlodlar kesimida taqsimlanishiga ko‘ra, eng ko‘p - 4 ta tur va 1 kenja tur *Hyles* avlodiga tegishli ekanligi, *Agrius*, *Hyles*, *Laothoe*, *Macroglossum*, *Proserpinus*, *Smerinthus*, *Theretra* avlodlarining barchasidan 1 tadan turlar uchrashligi qayd etilgan (2-rasm).


Faunistik tadqiqotlar natijasida Janubiy Farg‘ona hududidan arvoh kapalaklarining 4 ta avlodiga mansub 7 ta tur (*Hyles euphorbiae*, *H. hippophaes*, *H. livornica*, *H. zygophylli*, *Macroglossum stellatarum*, *Proserpinus proserpina*, *Smerinthus kindermannii*) ilk bor aniqlangan. Aniqlangan barcha turlar va ularning Janubiy Farg‘ona hududidan qayd etilishiga oid ma’lumotlar Sphingidae oilasining xalqaro katalogida⁵ o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan *Proserpinus proserpina* ning Farg‘ona vodiysidan dastlabki qaydi, uning tarqalish areali chegarasini O‘zbekistonning sharqiy mintaqasi bo‘ylab kengaytirgan.

⁵ https://tpittaway.tripod.com/sphinx/s_kin.htm



2-rasm. Janubiy Farg‘ona arvoH kapalaklarining avlodlar bo‘yicha taqsimlanishi

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi “Janubiy Farg‘onadan qayd etilgan turlarning qanot tomirlanishi va genitaliya tuzilishiga asoslangan identifikatsiya belgilari” deb nomlangan bo‘lib, unda Janubiy Farg‘onadan qayd etilgan arvoH kapalaklar turlarining qanot va genitaliyasidan tayyorlangan preparat namunalari mikroskopik o‘rganish natijalari keltirilgan.




3-rasm. *Theretra alecto* (♂) va *Hyles euphorbiae* (♀) imagosining tashqi ko‘rinishi (A), genitaliya tuzilishi (B; C), oldingi (D) va orqa (E) qanot tomirlanishi (original rasmlar)

Unga ko‘ra, *Theretra alecto* Edeagusining eng muhim diagnostik belgisi bu uning uchida chap tomonida joylashgan, g‘ilofsimon, chetlari mayda tishchalar bilan qoplangan (arrasimon) o‘simtaning mavjudligidir. Bu o‘simtaning shakli va undagi tishchalar soni turni farqlashda yordam beradi. *H. euphorbiae* urg‘ochi genitaliyasi

kopulyativ xaltachasining (Corpus bursa) ichida urg‘ochi kapalaklar uchun eng muhim diagnostik belgi hisoblangan Cornuti joylashgan. O‘ziga xos shakldagi Cornuti tuzilmasi ushbu turni boshqa yaqin turlardan ajratishda eng ishonchli diagnostik belgi bo‘lib xizmat qiladi (3-rasm).

Uchinchi bobning “Janubiy Farg‘ona arvoah kapalaklarining molekulyar-genetik tahlili” deb nomlangan uchinchi paragrafda arvoah kapalaklarning *Agrius convolvuli*, *Hyles hippophaes*, *H. livornica*, *Macroglossum stellatarum*, *Smerinthus kindermannii* hamda *Theretra alecto* turlari molekulyar-genetik tahlil qilinib, turlarning taksonomik o‘rni va filogenetik aloqalari ochib berilgan. Xususan, *Theretra* avlodi Sphingidae oilasining tur soni ko‘pligi bilan ajralib turuvchi guruhlaridan biri bo‘lib, Janubiy Farg‘onadan uning bir turi – *T. alecto* qayd etildi. Mazkur tur mtDNKning COI barkod geni nukleotidlar ketma-ketligi asosida filogenetik jihatdan tadqiq etildi (4-rasm).




4-rasm. Janubiy Farg‘onadan qayd etilgan *Theretra alecto* hamda *Theretra* avlodi ayrim vakillarining o‘zaro NJ metodi asosida ishlab chiqilgan filogenetik shajara daraxti

Farg‘ona vodiysidan qayd etilgan namuna (PQ387106) genetik jihatdan Xitoydan (NC_062187) qayd etilgan namunadan 1,2% hamda Hindistondan

(MG783982) topilgan namunadan 1,6% farqlanishi kuzatildi. Mazkur farqlanish darajasi tur doirasidagi farqlanish ko‘rsatkichi oralig‘ida bo‘lsa-da, biroq boshqa avlodlardagi farqlanish ko‘rsatkichlariga solishtirganda katta hisoblanadi. Boshqa tomondan A.S.Shere-Kharwar va boshq. (2024) tomonidan Hindistondagi G‘arbiy Gat tog‘ tizmalaridagi *Theretra* avlodi vakillarining xilma-xilligi hamda tarqalishiga bag‘ishlangan tadqiqot ishida ushbu avlod turlaridan *T. nessus* ning tur ichidagi genetik farqlanish ko‘rsatkichi 5,22%, *T. latreillii* da esa 4,17% hamda *T. alecto* da esa 3,15% (K2P) gacha tebranishi qayd etilgan. Bizning filogenetik tahlilda qo‘lga kiritilgan genetik farqlanish yuqoridagilar farqlanish ko‘rsatkichlaridan kichik bo‘lib, turning Janubiy Farg‘ona populyatsiyasini shubhasiz *T. alecto* deb baholash imkonini beradi.

“Janubiy Farg‘ona arvoq kapalaklarining tarqalish areallari” deb nomlangan to‘rtinchi paragrafda Sphingidae turlarining Janubiy Farg‘ona hududidan 2020-2024-yillar davomida yig‘ilgan namunalari asosida tahlil etilgan. Tadqiqot hududidan qayd etilgan 9 tur va 2 kenja turning tarqalish areallari o‘rganilib, aniqlangan koordinatalar asosida Janubiy Farg‘onada tarqalish xaritalari ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, *Smerinthus kindermannii* ning Janubiy Farg‘ona hududida (O‘zbekiston) tarqalish areali tadqiqot hududining janubi hamda janubiy-sharqiy qismlari bo‘ylab Markaziy Farg‘onaga qadar davom etadi. *Laothoe populi populetorum* dan farqli ravishda Janubiy Farg‘ona areali Rishton (Cho‘ng‘ara) orqali So‘x (eksklav) areali bilan tutashgan. Janubiy-g‘arbiy hududlarda, jumladan Sho‘rsuv adirlilklari va unga tutash hududlarda uchratilmadi.




5-rasm. *Proserpinus proserpina* ning Janubiy Farg‘ona (O‘zbekiston) hududida tarqalish areallari

Proserpinus proserpina O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan tur bo‘lib, uning O‘zbekistonning sharqiy hududida – Farg‘ona vodiysidagi tarqalish areallari ilk bor qayd etildi. *P. proserpina* tadqiqot hududida lokal tarqalish areallariga ega bo‘lib, Farg‘ona tumanining Satkak, Oqbilol qishloqlari, shuningdek Quvasoy shahrining Chinortagi qishlog‘i hozircha ushbu turning bizga ma‘lum bo‘lgan tarqalish areallari hisoblanadi (5-rasm).

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Janubiy Farg‘ona arvoah kapalaklarining bioekologik xususiyatlari**” deb nomlanib, 3 ta paragrafdan iborat. Dastlabki paragrafda “Janubiy Farg‘ona arvoah kapalaklarining mavsumiy rivojlanish xususiyatlari” ochib berilgan. Janubiy Farg‘ona sharoitida *Proserpinus proserpina* bahorgi-yozgi, *Macroglossum stellatarum*, *Laothoe populi populetorum*, *Theretra alecto*, *Smerinthus kindermannii*, *Agrius convolvuli*, *Hyles livornica*, *H. zygophylli*, *H. euphorbiae* bahorgi-yozgi-kuzgi, *H. hippophaes*, *H. hippophaes bienerti* yozgi-kuzgi ekologik guruhga mansub. Kapalaklarning mavsumiy faolligi yoki uchish muddatlariga ko‘ra, *P. proserpina*, *L. populi populetorum*, *H. zygophylli*, *H. euphorbiae*, *H. livornica* bahorgi-yozgi, *A. convolvuli*, *S. kindermannii*, *M. stellatarum*, *T. alecto* bahorgi-yozgi-kuzgi, *H. hippophaes*, *H. hippophaes bienerti* yozgi-kuzgi guruhga mansub. Rivojlanish sikliga ko‘ra *P. proserpina* monovoltin, ya‘ni mavsum davomida bitta avlod beradi. *L. populi populetorum*, *H. euphorbiae*, *H. hippophaes*, *H. hippophaes bienerti*, *H. zygophylli*, *H. livornica* bivoltin tur sifatida bir yilda ikkita avlod beradi. *M. stellatarum*, *T. alecto*, *S. kindermannii*, *A. convolvuli* turlari esa polivoltin hayot sikliga ega bo‘lib, bir yilda uchtadan avlod beradi. Qishlash xususiyatlariga ko‘ra, *M. stellatarum* kapalak holida, qolgan barcha turlar esa g‘umbak bosqichida qishlab chiqadi.

To‘rtinchi bobning 4.2-paragrafida “Janubiy Farg‘ona arvoah kapalaklarining ozuqa o‘simliklari bilan trofik aloqalari” ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Janubiy Farg‘ona arvoah kapalaklari imagolari jami 15 ta oilaga mansub 34 ta o‘simlik turi bilan trofik aloqaga ega (6-rasm). Tadqiqot hududi Sphingidae turlarining imagolik bosqichidagi trofik darajalariga ko‘ra 6 ta (66,7%) tur polifag, 3 ta (33,3%) tur oligofag guruhga mansubligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Janubiy Farg‘ona arvoah kapalaklari qurtlari 11 ta oilaga mansub 18 ta o‘simlik turi bilan trofik aloqaga ega. Tadqiqot hududi Sphingidae turlarining qurtlik bosqichidagi trofik darajalariga ko‘ra, 2 ta (18,2%) tur tor polifag, 7 ta (63,6%) tur oligofag, 2 ta (18,2%) tur monofag ekologik guruhga mansub. Xususan, arvoah kapalaklari qurtlarining ozuqa spektri kenglik darajasiga ko‘ra *Agrius convolvuli*, *Laothoe populi populetorum* ikkitadan oilaning bir nechta (3 tadan) o‘simlik turlariga ixtisoslashgan - tor polifag, *Smerinthus kindermannii*, *Macroglossum stellatarum*, *Proserpinus proserpina*, *Theretra alecto*, *Hyles hippophaes*, *H. hippophaes bienerti*, *H. zygophylli* bittadan oilaning bir nechta (2 tadan) o‘simliklariga ixtisoslashgan - oligofag, *H. livornica* hamda *H. euphorbiae* bittadan oilaning 1 tadan o‘simlik turiga ixtisoslashgan - monofag turlardir.



6-rasm. Janubiy Farg‘ona arvoh kapalaklar imagolarining trofik aloqalari (o‘simlik oilalari bo‘yicha)

Arvoh kapalaklar imagolarining o‘simliklarning hayotiy shakllari bilan aloqasiga ko‘ra 5 ta (55,6%) tur dendro-tamno-xortobiont, 4 ta (44,4%) tur dendro-xortobiont, shuningdek, qurtlik bosqichidagi biotsenotik aloqalariga ko‘ra 2 ta (18,2%) tur dendrofag, 3 ta (27,3%) tur tamnofag, 6 ta (54,5%) tur xortofag ekologik guruhga mansub (1-jadval).


1-jadval

Janubiy Farg‘ona arvoh kapalaklarining qurtlik va imago bosqichida o‘simliklarning hayotiy shakli bilan aloqasi

Tur	Qurt	Imago
<i>A. convolvuli</i>	Xortofag	Dendro-tamno-xortobiont
<i>S. kindermannii</i>	Dendrofag	-
<i>L. populi populetorum</i>	Dendrofag	-
<i>M. stellatarum</i>	Xortofag	Dendro-tamno-xortobiont
<i>P. proserpina</i>	Xortofag	Dendro-tamno-xortobiont

Tur	Qurt	Imago
<i>T. alecto</i>	Tamnofag	Dendro-tamno-xortobiont
<i>H. livornica</i>	Xortofag	Dendro-tamno-xortobiont
<i>H. hippophaes</i>	Tamnofag	Dendro-xortobiont
<i>H. hippophaes bienerti</i>	Tamnofag	Dendro-xortobiont
<i>H. zygophylli</i>	Xortofag	Dendro-xortobiont
<i>H. euphorbiae</i>	Xortofag	Dendro-xortobiont

To'rtinchi bobning "Tabiiy ekotizimlar antropogen transformatsiyasini arvoҳ kapalaklar populyatsiyalariga ta'siri" deb nomlangan 4.3- paragrafida Janubiy Farg'ona sharoitida *Theretra alecto* hamda *Macroglossum stellatarum* kapalaklarining morfo-ekologik o'zgaruvchanlik xususiyatlari matematik-statistik tahlil etilib, tabiiy ekotizimlar antropogen transformatsiyasini arvoҳ kapalaklar populyatsiyalariga ta'siri ochib berilgan. Xususan, tadqiqot hududining antropogen ta'sir nisbatan yuqori bo'lgan Oltiariq tumani hamda tabiiy ekotizimlarga tutash bo'lgan So'x tumanining tog' va tog' oldi hududlaridan yig'ilgan *Theretra alecto* (♂) namunalari qiyosiy morfometrik ko'rsatkichlarining matematik-statistik tahlillariga ko'ra, kapalaklarning 8 ta muhim belgilari bo'yicha barcha morfometrik ko'rsatkichlar Oltiariq namunalarida So'x namunalariga nisbatan kichikligi bilan ajralib turadi (7-rasm).



7-rasm. Oltiariq hamda So'x namunalarining oldingi qanot uzunligi va kengligi ko'rsatkichlari bo'yicha taqsimlanishi

Kapalaklarning oldingi qanot uzunligi o'zgaruvchanligi ikki hududda bir-biridan keskin farq qiladi (2-jadval). So'x namunalarida bu ko'rsatkich nisbatan barqaror (CV=8,47%; $S_{cv}=2,35\%$), Oltiariq populyatsiyalarida esa o'zgaruvchanlik deyarli ikki barobar yuqori ekanligi aniqlandi (CV=15,56%; $S_{cv}=3,77\%$). Shunga monand ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi qiyosiy farqning ishonchilik darajasi ham yuqori ($P>0,01$). Xuddi shunday yuqori ishonchlilikdagi tafovut kapalaklarning qanotlari yozilgandagi kengligi ko'rsatkichlarida ham qayd etildi. Jumladan, So'x namunalarida o'zgaruvchanlik ancha past (CV=8%) bo'lsa, Oltiariq namunalarida bu ko'rsatkich deyarli ikki hissa yuqori (CV=14,66%) ekanligi bilan ajralib turadi ($P>0,01$). Keyingi qanot uzunligi bo'yicha ham Oltiariq populyatsiyasida kapalaklarning morfometrik o'zgaruvchanligi yuqori ekanligi yaqqol namoyon

bo'ladi. Masalan, keyingi qanot uzunligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti Oltiariq namunalarida $CV=13,75\%$ ($S_{cv}=3,33\%$) ni tashkil etgan holda, So'x populyatsiyasida bu ko'rsatkich ancha past – $CV=9,38\%$ ($S_{cv}=2,6\%$) ni tashkil etadi. Ushbu belgilarning variatsiya koeffitsientlari farqining ishonchlilik chegarasi o'rta darajada ($P>0,05$).

2-jadval

So'x hamda Oltiariq tumanidan yig'ilgan *Theretra alecto* (♂) morfologik belgilari variatsiya koeffitsiyentlarining qiyosiy ko'rsatkichlari

Morfologik belgi	So'x		Oltiariq		d_{cv}	t_f	t_{st}	P
	CV (%)	S_{cv} (%)	CV (%)	S_{cv} (%)				
OQU	8,47	2,35	15,56	3,77	-7,09	-2,863	2,76	0,01
OQK	8,29	2,3	9,01	2,18	-0,72	-0,34	2,05	-
KQU	9,38	2,6	13,75	3,33	-4,37	-2,117	2,05	0,05
KQK	13,63	3,78	17,17	4,16	-3,54	-1,256	2,05	-
TU	5,39	1,5	6,82	1,65	-1,43	-0,806	2,05	-
TK	10,65	2,95	12,78	3,10	-2,13	-0,866	2,05	-
MU	8,35	2,32	7,89	1,91	0,46	-0,224	2,05	-
QYK	8	2,22	14,66	3,54	-6,66	-2,772	2,76	0,01

Izoh: OQU – oldingi qanot uzunligi; OQK- oldingi qanot kengligi; KQU – keyingi qanot uzunligi; KQK – keyingi qanot kengligi; TU – tana uzunligi; TK – tana kengligi; MU – mo'ylov uzunligi; QYK – qanoti yozilganda kengligi; CV(%)- variatsiya koeffitsiyenti; S_{cv} (%)-variatsiya koeffitsiyentining aniqligi; d_{cv} - qiyoslanayotgan variatsiya koeffitsiyentlari farqi; t_f - qiyoslanayotgan belgining faktik ko'rsatkichi; t_{st} - standart ko'rsatkich; P- ishonchlilik darajasi.

Oltiariq tumanining antropogen agrolandshaftlarida, xususan, tokzorlarda tarqalgan *T. alecto* populyatsiyasining oldingi va keyingi qanotlar uzunligi, qanotlar yozilgandagi kengligi kabi muhim morfometrik belgilarida So'x populyatsiyasiga nisbatan yuqori darajadagi o'zgaruvchanlik, hududning tabiiy-geografik xususiyatlari bilan bir qatorda, pestitsidlar ta'siri, ozuqa manbasining sifat o'zgarishlari kabi noqulay ekologik omillarni *T. alecto* populyatsiyasining rivojlanish barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatganligidan dalolat beradi. Ya'ni, beqaror sharoitdagi kapalaklar ayrim morfologik belgilarining bir xilda rivojlanmasligi o'zgaruvchanlik koeffitsiyentining ortishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Statistik tahlil natijalari *M. stellatarum* kapalaklarini antropogen ekotizimlarga nisbatan yaxshi moslashganligini ko'rsatdi. Xususan, *M. stellatarum* kapalaklari trofik jixatdan antropogen landshaftlar bilan aloqaga ega bo'lsada, ozuqa spektri tarkibida tabiiy o'simliklar ulushi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu borada, *M. stellatarum* qurtlarining asosan tabiiy o'simliklar bilan oziqlanishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu holat ularga *T.alecto* dan farqli ravishda, antropogen omillar ta'sirini chetlab o'tish imkonini beradi. Shuningdek, areali qisqarib

borayotgan turlarni muhofaza qilish maqsadida o‘zuqa o‘simliklarini tiklash va ko‘paytirish, pestitsidlar ta‘sirini kamaytirish va agroekologik muvozanatni shakllantirish, sun‘iy yoritish vositalarini nazorat qilish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

XULOSALAR

“Janubiy Farg‘onaning arvoq kapalaklari (Lepidoptera: Sphingidae) faunasi va ekologiyasi” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Janubiy Farg‘ona hududi Sphingidae oilasining tur tarkibi o‘rganilib, 3 ta kenja oila, 3 ta triba, 7 ta avlodga mansub 9 ta tur va 2 ta kenja turdan iborat ekanligi aniqlandi.

2. Arvoq kapalaklarning 4 ta avlodga mansub 7 ta turi (*Hyles euphorbiae*, *H. hippophaes*, *H. livornica*, *H. zygophylli*, *Macroglossum stellatarum*, *Proserpinus proserpina*, *Smerinthus kindermannii*) tadqiqot hududida ilk bor qayd etildi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan *P. proserpina* ning Farg‘ona vodiysidan dastlabki qaydi asosida, uning tarqalish areali chegarasi O‘zbekistonning sharqiy mintaqasi bo‘ylab kengayganligi aniqlandi.

3. Janubiy Farg‘ona arvoq kapalaklari molekulyar-genetik tahlil qilinib, turlarning taksonomik o‘rni va filogenetik aloqalari ochib berildi.

4. Tadqiqot hududi arvoq kapalaklari turlarining qanot tomirlanishi va genitaliya tuzilishi kabi barqaror taksonomik belgilarga asoslangan identifikatsiya me‘zonlari ishlab chiqildi.

5. Arvoq kapalaklar turlarining Janubiy Farg‘ona hududida tarqalish areallari belgilanib, xaritalari ishlab chiqildi.

6. Arvoq kapalaklar imagolarining mavsumiy faolligiga ko‘ra, 1 ta tur bahorgi-yozgi, 8 ta tur bahorgi-yozgi-kuzgi, 2 ta tur yozgi-kuzgi ekologik guruhga mansubligi, shuningdek qishlash xususiyatiga ko‘ra *M. stellatarum* kapalak holda, qolgan barcha turlar g‘umbak bosqichida qishlab chiqishi aniqlandi.

7. Arvoq kapalaklar imagolarining tadqiqot hududida jami 15 ta oila 34 tur o‘simlik bilan, qurtlarini esa 11 ta oila 18 tur o‘simlik bilan trofik aloqalari aniqlandi. Imagolik bosqichidagi trofik darajalariga ko‘ra polifag (6 ta; 66,7%) hamda oligofag (3 ta; 33,3%), o‘simliklarning hayotiy shakllari bilan aloqasiga ko‘ra dendro-tamno-xortobiont (5 ta; 55,6%) hamda dendro-xortobiont (4 ta; 44,4%), shuningdek qurtlik bosqichidagi trofik darajalariga ko‘ra, tor polifag (2 ta; 18,2%), oligofag (7 ta; 63,6%), monofag (2 ta; 18,2%), o‘simliklarning hayotiy shakllari bilan biotsenotik aloqalariga ko‘ra dendrofag (2 ta; 18,2%), tamnofag (3 ta; 27,3%), xortofag (6 ta; 54,5%) ekologik guruhlari asoslab berildi.

8. Janubiy Farg‘ona sharoitida *Theretra alecto* hamda *Macroglossum stellatarum* kapalaklarining morfo-ekologik o‘zgaruvchanlik xususiyatlari matematik-statistik uslubda tahlil etilib, tabiiy ekotizimlar antropogen transformatsiyasini arvoq kapalaklar populyatsiyalariga ta‘siri ochib berildi.

9. Tadqiqot hududida areali qisqarib borayotgan arvoq kapalaklar turlarini muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2021.В.05.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАЮМОВА ОЙГУЛХОН ИСМОИЛЖОНОВНА

**ФАУНА И ЭКОЛОГИЯ БРАЖНИКОВ (LEPIDOPTERA: SPHINGIDAE)
ЮЖНОЙ ФЕРГАНЫ**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.1.PhD/B875.

Диссертационная работа выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Шерматов Маликжон Рахматжонович
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдуллаев Икрам Искандарович
доктор биологических наук, профессор

Юлдашева Шохиста Кобилжоновна
кандидат биологических наук, доцент

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится 10 января 2026 года в 10:00 на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2021.B.05.06 по присуждению ученых степеней при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-02; Факс: (+99873) 244-44-93; E-mail: fardu_info@umail.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована под №667). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан 29 декабря 2025 г.
(Протокол реестра рассылки №36 от 29 декабря 2025 г.).



И.И. Зокиров

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

Б.М. Шералиев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, к.б.н., доцент

А.К. Хусанов

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сохранение биоразнообразия и обеспечение устойчивости экосистем в глобальном масштабе является одной из актуальных проблем. В частности, интенсивное освоение естественных экосистем под воздействием антропогенных факторов приводит к изменению окружающей среды и сокращению биологического разнообразия, в том числе к уменьшению разнообразия фауны бражников (Sphingidae) – одного из экологически важных семейств отряда Lepidoptera. В связи с этим, исследования, направленные на оценку современного состояния популяций бражников, выявление их таксономического состава и совершенствование мер по охране редких и исчезающих видов на территориях, естественные экосистемы которых подвергаются изменениям под воздействием антропогенных факторов и изменений климата, имеют важное научно-практическое значение.

Ведущими мировыми научно-исследовательскими учреждениями ведутся научные исследования фауны, распространения, экологии и значения бражников на основе современных подходов. В этой связи, в частности, особое внимание уделяется определению современного таксономического положения видов на основе молекулярно-генетических анализов⁶, оценке воздействия глобальных и локальных факторов, влияющих на популяции⁷, разработке научно обоснованных мер управления и охраны для видов, нуждающихся в охране и имеющих экономическое значение, ГИС-моделированию их потенциальных ареалов на основе моделей изменения климата, их роли в пищевых цепях и опылении растений, а также их значению в оценке состояния экосистем, находящихся в состоянии экологического кризиса⁸.

В нашей республике уделяется особое внимание выявлению биоразнообразия насекомых, изучению их экологического и экономического значения, охране редких и исчезающих видов, а также разработке эффективных мер борьбы с видами-вредителями. В этой связи, в стратегии «Узбекистан – 2030»⁹ в качестве основных целей, которые должны быть достигнуты к 2030 году, определены такие приоритетные направления, как «Предотвращение негативного воздействия изменения климата» и «Обеспечение надежной сохранности биологического разнообразия». Исходя из этих целей, исследования, направленные на изучение фауны бражников Ферганской долины, выявление их ареалов распространения и экологических особенностей, сохранение видов, нуждающихся в охране, а также совершенствование методов борьбы с видами-вредителями, приобретают важное научное и практическое значение.

⁶ <https://doi.org/10.1073/pnas.0510466103>

⁷ <http://dx.doi.org/10.1111/icad.12447>

⁸ <http://dx.doi.org/10.1111/1365-2435.12753>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.

Данная исследовательская работа в определенной степени служит реализации задач, определенных в Законе Республики Узбекистан «Об охране и использовании животного мира» ЗРУ-408 от 19 сентября 2016 года, Указах Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан на период до 2030 года» УП-5863 от 30 октября 2019 года, «О Стратегии «Узбекистан – 2030» УП-158 от 11 сентября 2023 года, «О государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» в «Год охраны окружающей среды и 'зеленой экономики'» УП-16 от 30 января 2025 года, Постановлении Президента «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Государственной службы по карантину растений» ПП-4861 от 13 октября 2020 года, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годов» № 484 от 11 июня 2019 года, а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной деятельности.

